



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №4



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
<b>A.A. Akbarov, X.R. Aliyev</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
<b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
<b>Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi</b>	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....	64
<b>Namazov Gafur Shokulovich</b>	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....	69
<b>Beglayev Uchqun Xurramovich</b>	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....	75
<b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....	81
<b>Artikova R.A.</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
<b>Ibragimov G'anjion G'ayratovich</b>	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN .....	93
<b>Axliddin Aropitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich</b>	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
<b>Айматова Фарида Хуразовна</b>	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
<b>Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li</b>	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	113
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	118
<b>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
<b>Muhammadiyeva Nodira</b>	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
<b>Santjar Abdumurodovich Sattorov</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....	139
<b>Allamuratova Perida Maxsetbaevna</b>	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....	144
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna</b>	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....	152
<b>Alikulov Samar Abdurashidovich</b>	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....	159
<b>Karimova Shaxnoza Uktamovna</b>	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....	165
<b>Ruziyeva Barno Yadgarovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	168
<b>Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li</b>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....	172
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	177
<b>Matmuratova Nasiba Azatovna</b>	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....	181
<b>Pulatov Abdulla</b>	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	185
<b>Nazarov Aziz Avazovich</b>	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ .....	190
<b>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</b>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI .....	197
<b>Omonova Nafisa Qahramon qizi</b>	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION .....	200
<b>Ahrorova Asila</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	207
<b>Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI .....	212
<b>Tursunov Rasul Tairovich</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....	218
<b>Эргашева Феруза Насруллаевна</b>	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN .....	226
<b>Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna</b>	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY .....	231
<b>Musadjanova Nargiza Abdvoxid qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI .....	238
<b>Saodat Sadriddinova</b>	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	243
<b>Saida Xabibullayeva</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
<b>Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	252
<b>Kudratova Iroda Turdibayevna</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI .....	257
<b>Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich</b>	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI .....	260
<b>Sottarov Abduvali Umirqulovich</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
<b>Rahmanova Sitora Bahodir qizi</b>	



## YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Rahmanova Sitora Bahodir qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchi

ORCID: 0009-0009-9170-3572

E-mail: sitora.rahmonova.9500@bk.ru

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil loyihalarning ahamiyati hamda ularni moliyalashtirishda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy mexanizmlar tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun ekologik yo'naltirilgan investitsiyalar muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot doirasida yashil obligatsiyalar, davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda World Bank, Asian Development Bank kabi xalqaro moliya institutlarining qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni ta'minlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, ekologik loyihalar, investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, barqaror rivojlanish, xalqaro moliya institutlari, innovatsiyalar.

**Abstract.** This study analyzes the importance of green projects in ensuring environmentally sustainable development and the key financial mechanisms used to finance them. In the context of climate change, environmentally oriented investments are a crucial factor for achieving sustainable economic growth. The research examines green bonds, government subsidies, public-private partnership mechanisms, and the support opportunities provided by institutions such as the World Bank and the Asian Development Bank. In addition, the study highlights the implementation of innovative technologies, efficient use of natural resources, and the maintenance of ecological balance in the transition to a green economy.

**Key words:** green economy, environmental projects, investments, green bonds, government subsidies, sustainable development, international financial institutions, innovations.

**Аннотация.** В данном исследовании анализируется значение «зелёных» проектов в обеспечении экологически устойчивого развития, а также основные финансовые механизмы их финансирования. В условиях изменения климата экологически ориентированные инвестиции становятся важным фактором достижения устойчивого экономического роста. В работе рассмотрены «зелёные» облигации, государственные субсидии, механизмы государственно-частного партнёрства, а также возможности поддержки со стороны World Bank и Asian Development Bank. Также освещены вопросы внедрения инновационных технологий, эффективного использования природных ресурсов и обеспечения экологического равновесия в процессе перехода к «зелёной» экономике.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, экологические проекты, инвестиции, зелёные облигации, государственные субсидии, устойчивое развитие, международные финансовые институты, инновации.



## KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning kamayib borishi iqtisodiy rivojlanish modelini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanishni ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan yangi iqtisodiy yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Ushbu jarayonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi ekologik loyihalarni rivojlantirish va ularni samarali moliyalashtirish hisoblanadi. Bunday loyihalar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslarini oqilona boshqarish, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish hamda chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu tashabbuslar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bois ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda investitsiyalarni jalb qilish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va ekologik loyihalarni moliyalashtirish masalalari so'nggi yillarda iqtisodiyot fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda ekologik xavfsizlik muammolarining kuchayib borishi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarning kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyot va ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, World Bank mutaxassisi A. Shah o'z tadqiqotlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishda ekologik investitsiyalarning rolini asoslab bergan. Uning fikricha, yashil investitsiyalar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi. OECD tashkiloti tadqiqotlarida esa davlat siyosati, yashil moliyalashtirish instrumentlari va investitsion mexanizmlar ekologik loyihalarni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatilgan.

Shuningdek, Y. Sintomer, C. Herzberg va A. Röcke kabi olimlar ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil obligatsiyalar va ekologik investitsiyalar muhim moliyaviy vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, so'nggi yillarda yashil obligatsiyalar bozori jadal rivojlanib, ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmlaridan biriga aylangan [2].

Xalqaro tashkilotlar, jumladan United Nations Development Programme ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik transport tizimlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mahalliy olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot va ekologik moliyalashtirish masalalari o'rganilgan. Xususan, N. B. Soatova davlat moliyasini boshqarish jarayonida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekiston olimlari tomonidan energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish hamda ekologik investitsiyalarni jalb qilish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida yashil loyihalarni moliyalashtirishning global tajribasi yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kompleks ravishda o'rganish va ularni takomillashtirish masalalari yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Shu sababli mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy mohiyati, ularning amaliy qo'llanilishi hamda xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, unda ekologik loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, davlat-xususiy sheriklik hamda xalqaro moliya institutlari imkoniyatlari kompleks tarzda o'rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqotlarning umumqabul qilingan iqtisodiy-uslubiy yondashuvlari va usullaridan foydalanildi. Xususan, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv asosida iqtisodiy tahlil olib borildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli keng qo'llanildi. Ushbu usul yordamida turli mamlakatlarda yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari va samaradorligi taqqoslandi. Jumladan, Xitoy, European Union davlatlari hamda Norvegiya tajribasi tahlil qilinib, ularning ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ilg'or amaliyotlari o'rganildi.

Shuningdek, statistik tahlil usulidan ham foydalanildi. Bu usul yordamida yashil obligatsiyalar bozori, qayta tiklanadigan energiya ulushi hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bo'yicha



statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida ekologik loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va ularning rivojlanish tendensiyalari baholandi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari ham qo'llanildi. Induksiya usuli orqali alohida fakt va ma'lumotlar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Deduksiya usuli esa mavjud nazariy qarashlar asosida ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy jihatlarini tushuntirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tahlil va sintez usullari yordamida yashil iqtisodiyotning tarkibiy elementlari, ekologik investitsiyalar va moliyalashtirish instrumentlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Mazkur usullar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish jarayonining iqtisodiy mohiyati va uning rivojlanish istiqbollari aniqlab berildi.

Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar, jumladan World Bank, Asian Development Bank, OECD hamda United Nations Development Programme tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlardan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning muhim metodologik asosini tashkil etdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqishda qayta tiklanadigan energiya manbalarining roli tobora ortib bormoqda. Ushbu energiya manbalari qatoriga quyosh, shamol, gidroenergetika va biomassa kiradi. Mazkur manbalar nafaqat energiya ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi, balki atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish orqali ekologik xavfsizlikni ham ta'minlaydi.

O'zbekiston geografik jihatdan quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida yil davomida o'rtacha 3000-3200 soat quyosh nuri kuzatiladi. Bu esa quyosh energiyasiga asoslangan texnologiyalarni keng joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada energiya ishlab chiqarishda an'anaviy yoqilg'i resurslaridan foydalanish qisqaradi va ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Yashil loyihalarning muhim yo'nalishlaridan yana biri suv resurslarini samarali boshqarish hisoblanadi. Suv tanqisligi va mavjud resurslardan noto'g'ri foydalanish qishloq xo'jaligi hamda sanoat sohasiga sezilarli zarar yetkazmoqda. Shu sababli suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilish, tomchilatib sug'orish tizimlarini keng qo'llash va suvni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [4].

Shuningdek, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish ham global miqyosda karbonat gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Elektr transport vositalaridan foydalanish, jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish hamda piyodalar va velosipedchilar uchun maxsus yo'laklar tashkil etish ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashil loyihalarni moliyalashtirish turli iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ularning asosiylari sifatida yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordamni keltirish mumkin. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Xitoy yashil obligatsiyalar bozorida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, 2023-yilda ushbu obligatsiyalar hajmi 120 milliard AQSh dollariga yaqinlashgan.

Bundan tashqari, davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar ham yashil texnologiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab mamlakatlarda quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. O'zbekistonda ham "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida energiya tejoychi texnologiyalar va quyosh panellarini joriy etishga qaratilgan imtiyozlar berilmoqda.

Yashil loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik modeli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik mexanizmi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarni birlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, Yevropa davlatlarida ekologik transport va qayta tiklanadigan energiya sohasida bunday hamkorlik keng qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari ham yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqda. World Bank, Asian Development Bank va boshqa tashkilotlar qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi hamda ekologik transport tizimlarini rivojlantirish uchun kreditlar va grantlar ajratmoqda. Jumladan, World Bank O'zbekistonda quyosh elektr stansiyalarini barpo etishga qaratilgan bir qator loyihalarni moliyalashtirmoqda.

So'nggi yillarda yashil loyihalarni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar ham qo'llanilmoqda. Jumladan, blokcheyn texnologiyasi asosida ishlovchi moliyaviy platformalar, raqamli obligatsiyalar va ekologik bank xizmatlari moliyalashtirish jarayonining shaffofligini oshirish hamda investorlar uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni yanada tezlashmoqda.



1-jadval. Statistika ma'lumotlar jadvali.[5]

№	Ko'rsatkich	Mamlakat / Hudud	Statistik ma'lumot
1	Yiliga quyosh nuri davomiyligi	O'zbekiston	3000–3200 soat
2	Yashil obligatsiyalar hajmi	Xitoy (2023)	120 mlrd AQSh dollari
3	Global yashil obligatsiyalar bozori	Jahon bo'yicha	500 mlrd dollardan ortiq
4	Qayta tiklanadigan energiya ulushi	Yevropa Ittifoqi	22–25 %
5	Elektr transport ulushi	Norvegiya	80 % ga yaqin yangi avtomobillar
6	Jahon bankining yashil loyihalarga ajratgan mablag'i	Global	yiliga 30 mlrd dollardan ortiq
7	O'zbekistonda quyosh energetikasi loyihalari	O'zbekiston	10 dan ortiq yirik loyiha

Quyidagi jadval ma'lumotlari yashil iqtisodiyot va ekologik loyihalarni moliyalashtirish jarayonining global va milliy miqyosdagi rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. Jadvaldagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali qayta tiklanadigan energiya manbalari, yashil moliyaviy instrumentlar hamda ekologik transport tizimlarining iqtisodiy va ekologik ahamiyatini ko'rish mumkin.

Avvalo, O'zbekistonda yiliga 3000-3200 soat quyosh nuri kuzatilishi mamlakatda quyosh energetikasini rivojlantirish uchun juda katta salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli quyosh elektr stansiyalarini qurish va quyosh panellarini joriy etish orqali energiya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda tabiiy gazga bo'lgan qaramlikni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Jadvaldagi yana bir muhim ko'rsatkich — Xitoyda 2023-yilda 120 milliard AQSh dollari miqdorida yashil obligatsiyalar chiqarilganidir. Bu Xitoyning ekologik loyihalarni moliyalashtirishda yetakchi davlatlardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yashil obligatsiyalar investorlar uchun barqaror va nisbatan xavfsiz moliyaviy instrument sifatida qaralmoqda. Shuningdek, global miqyosda yashil obligatsiyalar bozori hajmining 500 milliard dollardan oshgani ushbu moliyaviy vositalarga bo'lgan talab tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi.

European Unionda qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi 22–25 % ni tashkil etishi rivojlangan mamlakatlar yashil energetika siyosatini faol qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich energiya tizimini ekologik jihatdan barqaror shaklga o'tkazish jarayoni izchil davom etayotganini anglatadi.

Transport sektoridagi ekologik o'zgarishlar ham jadvalda yaqqol ko'rinadi. Masalan, Norvegiyada yangi sotilayotgan avtomobillarning qariyb 80 % ini elektromobillar tashkil etadi. Bu mamlakatning ekologik transportni rivojlantirish borasidagi ilg'or siyosatini namoyon etadi. Bunday tajriba boshqa davlatlar uchun ham muhim namuna bo'lishi mumkin.

Xalqaro moliya institutlarining faoliyati ham yashil iqtisodiyot rivojida muhim rol o'ynaydi. Masalan, World Bank har yili 30 milliard dollardan ortiq mablag'ni ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi. Bu mablag'lar qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda ham qayta tiklanadigan energiya sohasida muhim loyihalar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda 10 dan ortiq yirik quyosh energetikasi loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yashil loyihalarni rivojlantirish nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois kelgusida yashil investitsiyalar hajmini oshirish, xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish zarur hisoblanadi [6].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun turli xil moliyaviy vositalar va mexanizmlar mavjud bo'lib, ular davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning o'zaro hamkorligini talab qiladi. Yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, xususiy sektor sherikchiligi va xalqaro moliyaviy yordam orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Ushbu mexanizmlarni samarali amalga oshirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Yashil loyihalarni investitsiyalash global iqlim muammolari va ekologik inqirozlarga qarshi kurashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu loyihalar qayta tiklanadigan



energiya, suv resurslarini samarali boshqarish, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Ularning moliyalashtirilishi esa davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab qiladi.

Yashil obligatsiyalar, davlat subsidiyalari, xususiy sektor bilan sheriklik va xalqaro moliya tashkilotlarining ko'magi ekologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu vositalar nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va sog'liqni saqlash tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar va raqamli moliyalashtirish vositalarining rivojlanishi yashil loyihalar samaradorligini yanada oshiradi. Yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Davlatlar o'zaro tajriba almashishi, moliyaviy resurslarni birlashtirishi va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishda hamkorlik qilishi lozim. Ushbu sa'y-harakatlar orqali Parij bitimi va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil loyihalarni moliyalashtirish va rivojlantirish global ekologik barqarorlik uchun eng samarali vositalardan biridir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatlar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'zaro hamkorlikni kuchaytirishi, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va resurslardan oqilona foydalanishi zarur. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali kelajak avlodlar uchun ekologik barqaror, iqtisodiy rivojlangan va ijtimoiy adolatli jamiyatni yaratish mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Global Green Economy: Opportunities and Challenges. — Washington, DC: World Bank Publications, 2023.
2. Asian Development Bank. Sustainable Investments in Green Projects. — Manila: ADB, 2022.
3. Mark Carney. Value(s): Building a Better World for All. — London: William Collins, 2021.
4. International Renewable Energy Agency. Reports on renewable energy development. — Abu Dhabi: IRENA, 2023.
5. World Bank. Green Bonds and Their Role in Sustainable Development. — Washington, DC: World Bank, 2022.
6. Government of Uzbekistan. Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha milliy strategiya. — Toshkent, 2023.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---